



Received: January 8, 2025
Accepted: February 24, 2025
Available online: February 25, 2025

Madina Asqarova

Tayanch doktorant
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O‘zbekiston

TILSHUNOSLIKKA OID IZLANISHLAR HAMDA TARJIMASHUNOSLIKDA PARALLEL KORPUSLARDAN FOYDALANISHNING TADQIQ ETILISHI

ANNOTATSIYA

Ushbu tadqiqotning maqsadi – parallel korpuslardan foydalanishning asosiy afzalliklarini aniqlash hamda ularning qiyosiy tilshunoslik va tarjimashunoslikka oid tadqiqotlarni rivojlantirishga qo‘shadigan hissasini tahlil qilishdan iborat. Parallel matn korpuslarining paydo bo‘lishi ushbu sohalaridagi tadqiqotlarni sezilarli darajada jadallashtirib, leksik birliklarning autentik qo‘llanilishiga tezkor va tizimli kirish imkoniyatini ta‘minlamoqda. Shuningdek, parallel korpuslardan foydalanish lingvistik hodisalarni aniq va samarali tahlil qilish imkoniyatini vujudga keltirib, qiyosiy tilshunoslik metodologiyasi va tarjima tadqiqotlarining yanada rivojlanishiga xizmat qiladi.

O‘z navbatida, tadqiqot vazifalari sifatida quyidagilar belgilandi: (1) parallel matnning paydo bo‘lish tarixi, rivojlanish bosqichlari, parallel korpus turlari va tarjima sohasidagi ahamiyati masalalarini o‘rganish; (2) parallel matnlardagi tarjima qilingan birliklarni qiyosiy metod yordamida o‘zaro farqli va o‘xshash jihatlarini nuqtayi nazaridan tahlil qilish; (3) parallel korpusning tarjima nazariyasida qo‘llanilishi masalasini ochib berish, buning uchun manba matnlar va ularning boshqa tillarga tarjima qilingan misollarini leksik, semantik va diskurs darajalarida tahlil qilib, tarjima jarayonida parallel matnlardan foydalanish va madaniyatlararo muloqotni yaxshilashdagi o‘rnini yoritish; (4) parallel matnlarni yaratish va moslashtirish jarayonida bajariladigan amaliy harakatlarni tahlil qilish.

Ayni vazifalarni samarali bajarish maqsadida

Madina Askarova

PhD Student
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: mb.asqarova@uzswlu.uz
ORCID iD: 0009-0007-2802-6199

EXPLORING PARALLEL CORPUS APPLICATIONS IN LINGUISTIC RESEARCH AND TRANSLATION STUDIES

ABSTRACT

The primary aim of this research is to ascertain the principal benefits of utilizing parallel corpora and evaluate their contribution to comparative linguistics and translation studies. The advent of parallel text corpora has expedited research in these domains, offering rapid access to authentic lexical unit usage. Moreover, parallel corpora facilitate precise analysis of linguistic phenomena, advancing the methodologies of comparative linguistics and translation research.

Consequently, the following research objectives are delineated: (1) to examine the history of the emergence of parallel texts, their developmental stages, types, and their significance in the field of translation; (2) to analyze translated units in parallel texts using the comparative method, focusing on their differences and similarities; (3) to elucidate the application of parallel corpora in translation theory by analyzing source texts and their translations into other languages at lexical, semantic, and discourse levels, thereby highlighting the role of parallel texts in the translation process and in enhancing intercultural communication; (4) to analyze the practical actions undertaken in the creation and adaptation of parallel texts.

To effectively achieve these objectives, the research article employs comparative and empirical analysis methodologies. Specifically, using A.A. Milne’s “Winnie-the-Pooh” as translated into other Germanic languages by D.V. Sichinova as a case study, the research examines how the present perfect tense is translated across different languages using a

tadqiqot-maqolada qiyosiy, empirik tahlil yondashuvi metodlaridan foydalanildi. Xususan, A.A. Milnning “Vinni-Pux” (“Winnie-the-Pooh”) asarining D.V. Sichinova tomonidan boshqa german tillariga o‘girilgan namunasidan foydalangan holda hozirgi tugallangan (present perfect) zamonning turli tillar kesimida qanday tarjima qilinganligi parallel korpus yordamida tahlil qilingan. Shu bilan birga, bo‘ljak tarjimonlarni tayyorlashda parallel korpusdan foydalanishning afzalliklari ham sanab o‘tilgan.

Mazkur tadqiqot natijalari asosida chiqarilgan xulosa shuki, tarjima qilinayotgan birliklarning adekvatligini aniqlash va ularning asl til egalari nutqida qo‘llanish shaklini tahlil qilishda parallel korpuslar muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, bo‘ljak tarjimonlar tomonidan tarjima metodlarini shakllantirish va avtomatik tarjima sifatini oshirish jarayonida parallel korpuslarni asosiy elektron manba sifatida e’tirof etish mumkin.

Kalit so‘zlar: korpus, parallel korpus, makrostruktural jihat, mikrostruktural jihat, interlingvistika, intralingvistika, eksplikatsiya, multilingual korpus, morfologik tahlil, lemma.

KIRISH

Korpus lingvistikasi rivojlanishi bilan bir qatorda uning bir qismi bo‘lgan parallel korpus ham lingvistika sohasida bir qancha yutuqlarga erishdi. 1950-yillarda qiyosiy tadqiqotlarda xorijiy tillarni o‘qitish va o‘rganishda samarali vositalarning kamligi soha mutaxassislarining ushbu yo‘nalishda olib birgan tadqiqotlari sezilarli darajada kamligigiga ta’sir qilar edi. Biroq 1990-yillardan boshlab ikki tilli va ko‘p tilli korpuslarning paydo bo‘lishi tillararo tadqiqotlarning ko‘payishiga olib keldi. Mazkur tadqiqot-maqola parallel matnlarning tarixi, ularning rivojlanishi hamda tarjima va til o‘qitisha jarayonidagi o‘rnini aniqlashga qaratilgan.

Dunyodagi ko‘plab davlatlarda davlat tili sifatida ikki yoki undan ortiq tillar rasmiy til sifatida tan olingan, shu bois tilshunoslar, tadqiqotchilar tarjima matnlaridagi tarjima qilinadigan fragmentlardangina olingan matnlardan foydalanishni taklif qilishgan [Kopotev, 2014]. Mana shu tarzda bir tildagi matnlarning turli tildagi tarjimalari mavjud matnlar korpusi yuzaga kelgan va bu yo‘nalish parallel korpusning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Shuningdek, ko‘p tilli matn tahlili va mashina tarjimasida adekvat tarjimaga talab oshdi va bu parallel korpuslarning dolzarbligini oshirdi. Parallel korpus (ing. *parallel corpora*) – tarjima matnlarining elektron analogi; unda asliyatdagi matn va uning bir yoki bir necha tarjimasi tizimli yig‘iladi. Y.Ebeling parallel korpusga quyidagicha ta’rif beradi: “... kamida ikkita sub korporadan iborat bo‘lib, ular qandaydir ko‘rinishga ega parallelizmdir” [Ebeling, 1998]. Parallel korpus atamasining ta’rifida adabiyotlarda ba’zi farqlar mavjud.

parallel korpus. Additionally, the advantages of employing parallel corpora in the training of future translators are enumerated.

Based on the findings of this research, it is concluded that parallel corpora are indispensable in determining the adequacy of translated units and analyzing their usage patterns in native speakers’ discourse. Furthermore, parallel corpora can be recognized as a primary electronic resource in the development of translation methods by future translators and in enhancing the quality of automatic translation.

Key words: corpus, parallel corpus, macrostructural aspect, microstructural aspect, interlinguistics, intralinguistics, explication, multilingual corpus, morphological analysis, lemma.

S.Granjening ta'kidlashicha, "parallel korpus" nomlanishi ham bahs mavzusi bo'lib kelgan, chunki "qiyosiy tilshunoslar ularni tarjima korpuslari deb atashadi", bu esa muayyan chalkashliklarga sabab bo'ladi. Yanada qiziq tomoni shundaki, qiyosiy tilshunoslik vakillari orasida ham "parallel korpus" atamasini qo'llashda fikr xilma-xilligi mavjud. Xususan, S.Granje qiyosiy tilshunoslar ba'zida parallel korpusni "taqqoslanadigan korpus yoki kombinatsiyalangan tarjima korpusi deb atashlarini ta'kidlaydi. Ammo, umumiy ta'rifga ko'ra, "parallel korpuslar ona tilidagi matnlar va ularning o'rganilayotgan tilidagi tarjimalaridan iborat to'plamlardir" [Granger, 2003]. Shu tariqa parallel korpuslar tarjima ekvivalentlari haqidagi ma'lumotlarni taqdim etib, mazkur korpusning eng qadimgi namunasi Rozettsk toshidir. Mazkur tosh mil. av. II asrda yaratilgan. Ushbu toshning o'rta qismida qadimgi Misr iyerogliflari va qadimgi yunon yozuvi o'z aksini topgan. Parallel korpus – ko'plab "original matn va ularning bir necha tarjimasini" bloklaridan iborat.

Parallel korpuslarning nazariy asoslanishi va o'rganilganlik darajasini aniqlash doirasidagi kuzatishlarimiz shuni ko'rsatdiki, parallel korpusning tarkibiy qismlari, tuzilishi hamda foydalanuvchi uchun qanday qulayliklar yaratishi mumkinligi haqida D.Dobrovolskiy, V.Zaxarov, A.Kokoreva, P.Sosninalarning ilmiy izlanishlarida muhim tahlillar mavjud [Sobirova, 2022]:

Parallel korpuslarni yaratish nazariyasi va amaliyoti bilan shug'ullangan olim D.Dobrovolskiy parallel korpusga o'zining quyidagicha ta'rifini keltiradi: "Parallel korpus asl va tarjimadagi elektron matnlar yig'indisidan iborat korpus. Asl va tarjima matnlar shunchaki yonma-yon qo'yilmaydi, balki bu ikki matndagi gap lar (sintaktik birliklar) mazmunan mos kelish darajasida bo'lakka bo'linib, mana shu birliklar yonma-yon, bir-biriga ishora qilishi, havola etish holatida turadi. Asliyatdagi matn fragmentiga mos keluvchi tarjimadagi fragment belgilab qo'yilgan bo'ladi. Aynan mana shu holat bunday korpuslar yordamida turli lingvistik amallar bajarishga imkon yaratadi" [Dobrovolskiy, 2015].

A.Kokoreva "Chet tilini o'qitishda parallel matnlar korpusi" ("Корпус параллельных текстов в обучение иностранному языку") nomli maqolasida parallel korpusning o'ziga xos xususiyati haqida shunday deydi: "Boshqa til korpuslaridan parallel korpusning tipik farqi uning ko'p tilliligidir. Uning bu xususiyati til o'rganuvchida leksik ko'nikmalar hosil qilishda qo'l keladi" [Kokoreva, 2013; 59].

Olim M.Umerovani keltirgan fikrlari esa, "parallel korpus deganda ikki yoki ko'p tilli korpus tushuniladi hamda u manba tili va uning muvofiq tarjimasini jamlagan tarjima tilli tizim hisoblanadi. Uning kuchli qidiruv, taqqoslash, xotira va boshqa jihatlari, shuningdek, korpusning ishonchliligi, uning leksik ma'lumotlar bilan boyitilganligi, ma'lumotlarning aniqligi an'anaviy tarjimadagi kamchiliklarni bartaraf etuvchi omil bo'lib xizmat qiladi" [Umerova, 2018].

Demak, parallel korpuslar istalgan bir tilning asli va uning tarjimasini o'zida jamlagan elektron tizim sifatida o'rganiladi. O'zbek tilshunosligida parallel korpuslarni yaratish bo'yicha dastlabki ilmiy tadqiqotlar B.Mengliyev, R.Karimovning izlanishlarida kuzatiladi. Ular parallel korpuslarni quyidagicha izohlashadi: "Korpuslar tarkibidagi material tiliga ko'ra, dastlab, bir tilli va ko'p tilli korpus turlariga bo'linadi. Ikki yoki

ko‘p tilli korpuslar esa parallel yoki tarjima korpuslari; qiyosiy korpus kabi ko‘rinishga ega” [Jo‘rayeva, 2022; 288]. Dastlabki parallel matnlar sifatida 1980-yillarning oxiri 1990-yillarning boshlarida Shveysariya nashrlarida paydo bo‘lgan nemis, fransuz va italyan tillarida to‘plangan qor ko‘chkisi haqidagi hisobotlar-u Kanada OAVlaridagi ingliz va fransuz tillarida berilgan ob-havo ma’lumotlarini keltirishimiz mumkin. Ilk paydo bo‘lgan elektron manbalardan biri Kanada Xansardi (Hansard) bo‘lib, u dastlab matn ichidagi jummalarni moslashtirishni amalga oshirish uchun qo‘llanilgan, mazkur vazifa bugungi kunda tarjima xotiralari kabi ilovalarning standart xususiyati hisoblanadi [Abduraxmonova, 2021]. O.Anarbayev parallel korpusga quyidagicha ta’rif beradi: “Parallel korpus madaniyatlararo muloqot keng yoyilgan hozirgi davr uchun muhim voqelik hisoblanadi. Parallel korpuslar orqali turli til muhitidagi, madaniyatlaridagi universalialar hamda tillarning o‘ziga xos mental xususiyatlari, realiya va lakunali birliklarni aniqlash mumkin bo‘ladi. Parallel matnlar korpusi avtomatik tarjima rivoji uchun ham xizmat qiladi, kompyuter leksikografiyasining taraqqiyotini ta’minlaydi. Parallel matnlar korpusi yordamida konkordanser dasturlar ishlab chiqiladi va turli xil ixtisoslik lug‘atlari tuzish imkoniyati yuzaga keladi” [Sobirova, 2022]. O‘rganilgan manbalardan shu xulosa qilindiki, parallel matn – bu bir yoki bir necha tillarda tarjimasi mavjud bo‘lgan matn bo‘lib maxsus dasturlar yordamida jamlangan ma’lumotlar yig‘indisidir.

TADQIQOT METODLARI

Mazkur tadqiqotni amalga oshirishda bir nechta tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Asosiy metod sifatida qiyoslash metodi tanlandi, mazkur metod yordamida ikki tilda mavjud bo‘lgan matnlar o‘zaro taqqoslandi va ularning o‘xshash va farqli jihatlari aniqlandi. Ayni metod orqali A.A. Miln muallifligidagi “Vinni-Pux” (“Winnie-the-Pooh”) asarining D.V. Sichinova tomonidan boshqa german tillariga tarjima qilingan namunasidan foydalangan holda hozirgi tugallangan (*present perfect*) zamonining turli tillar kesimida qanday tarjima qilinganligi solishtirildi, shu bilan birga, ularning farqli tomonlari o‘rganildi. Tadqiqotning muhim qismi empirik tahlil metodiga asoslandi, bu metod orqali bir necha tillarga tarjima qilingan va tarjima ekvivalenti mavjud bo‘lgan parallel korpuslar tahlil qilindi va ularning xususiyatlari o‘rganildi.

Ayni metodlar birgalikda tadqiqotga keng ko‘lamli ilmiy asos berdi, natijada tarjima sifatini oshirishda parallel matnlardan foydalanish samarali vosita ekanligi aniqlandi. Mazkur ilmiy maqolada, jumladan, tarjima qilinayotgan birliklarning o‘zaro farqli jihatlarni aniqlashda qiyosiy tahlil usuli qo‘llanildi.

Parallel korpuslar bir necha tillar o‘rtasidagi bir-biriga yaqin bo‘lgan o‘xshashlik hamda farqli jihatlarni aniqlash uchun empirik asos bo‘lib xizmat qildi va tilda sodir bo‘layotgan hodisalarni asl matnlar hamda ularning boshqa tillardagi tarjimalari bilan bog‘langan holda tahlil qilishga imkoniyat yaratdi. Parallel matnlar va ularni tizimli taqqoslash, terminologiya va matn me’yorlari hamda konvensiyalarni, shuningdek, morfosintaktik farqlarni tizimli tadqiq qilish uchun foydali matn bazalarini taqdim etadi. Ayniqsa, LSP (Language Specific Purpose) tarjima uchun terminologiyani

aniqlash va boshqarish parallel matnlarni sifatli tahlil qilishga bog'liq.

Avvalambor, V.Zaxarov parallel matn korpuslarini ikki asosiy turga bo'ladi:

1. Ma'lum bir asl tilda yozilgan original matnlar va mazkur matnlarning boshqa bir yoki bir nechta tillarga tarjimalarini o'z ichiga oladi.

2. Bir xil tematik sohaga oid ikki yoki undan ortiq tilda mustaqil yozilgan matnlarni birlashtiruvchi korpus [Zaxarov va boshq., 2021; 27].

Har ikki turdagi korpuslar tillarni qiyosiy tadqiq qilish (leksikologiya, grammatika, uslubshunoslik, tarjima tadqiqotlarida) va adekvat tarjima natijalariga erishish uchun foydalaniladi. V.Zaxarovning fikrlariga qo'shimcha ravishda A.Mahanand parallel matnlarni to'rt asosiy turga bo'ladi:

1. Asl matn va uning tarjimasi. Bunga misol tariqasida R.Tagorning "Bengal" va ingliz tilidagi "Gitanjali" asarlarini keltirish mumkin.

2. Mavzuga asoslangan parallel matnlar – bir xil mavzudagi ikki matn. Misol uchun, "Marjon orol" ("The Coral Island") va "Xazina oroli" ("Treasure Island") asarlari.

3. Trans-janrli matnlar – romanning o'z janridan o'zgartirilib filmga aylantirilgan ko'rinishi. Masalan, "Gaklberri Finn" ("The Huckleberry Finn") yoki "Qizil Harf" ("The Scarlet Letter").

4. Yaratilgan parallel matnlar – matn qisqartirilib, soddalashtirilib yoki boshqa shaklda qayta yoziladi. Misol uchun, murakkab tilga ega bo'lgan insho o'quvchilarga osonroq tushuntirish uchun o'qituvchi uni drammatizatsiya (biror matnni soddalashtirib, oson usulda tushuntirib berish) qilib beradi [Mahanand, 2020].

Tarjima madaniyatlararo muloqotning bir shakli bo'lib, u shunchaki lingvistik faoliyat bo'lib qolmay, balki madaniy muloqotdir. Tarjimalar kamida ikki tilni o'z ichiga oladi, bu esa tarjimonga ikki madaniyat bilan uzviy holda ishlash jarayonini talab etadi. Shu sababli, tarjimon nafaqat til vositachisi, balki turli til va madaniyatlarga aloqador bo'lgan odamlar yoki guruhlar o'rtasidagi madaniyatlarni yetkazuvchi shaxs sifatida qaraladi. Zero, mahoratli vositachiga aylanish uchun tarjimondan muayyan madaniyatlararo kompetensiyalarga ega bo'lishi talab etiladi:

■ jamiyat haqidagi bilimlar: tarix, folklor, an'analar, urf-odatlar, qadriyatlar, shu madaniyatga doir siyosiy masalalar, o'sha jamiyatdagi mashhur shaxslar va boshqalar;

■ muloqot ko'nikmalari: yozma, og'zaki va noverbal;

■ texnik ko'nikmalar: kompyuter savodxonligi, tashqi ko'rinish va hokazo;

■ ijtimoiy ko'nikmalar: o'sha jamiyatga doir ijtimoiy munosabatlardan xabardor bo'lish" [Jiang & Rij-Heyligers, 2008].

Yangi global davrning boshlanishi tarjimani o'qitish jarayonida yangi yondashuvni talab qilmoqda. Ushbu global o'zgarish tarjimani o'qitishda madaniy funksiyaga alohida e'tibor qaratishni, ya'ni madaniyatlararo ta'limni rivojlantirishni talab etadi. Parallel matnlarning eng mashhur namunasi Yevropa parlamenti majlislarining so'zma-so'z hisoboti bo'lib mazkur majlislar dastlab to'qqizta tilga tarjima qilingan, hozirda esa mazkur matnlarning tarjimalari yigirmadan oshiq tillarga tarjima qilinadi. Shuningdek, katta hajmli parallel matn bu Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi bo'lib, hozirda 332 tildagi tarjimasi mavjud YUNESKOning adabiy

tarjimalar bo'yicha onlayn ma'lumotlar bazasi – "Index Translationum" ham mavjud bo'lib, ayni bazada 1,5 million tarjima qilingan asarlar ro'yxati mavjud. Masalan, A.Kristining "Jinoyatdagi hamkorlar" ("Partners in Crime") asarining o'n uch turli tildagi 51 ta tarjimasi qayd qilingan [Cysouw & Wälchli, 2007; 99]. Parallel matnlar faqatgina lingvistik farq asosida solishtiriladi, chunki matnlarni taqqoslash talab qilinganda faqatgina ularning mavzusi, funksiyasi va konteksti bir xil bo'lishi talab etiladi. Parallel matnlarning ikki asosiy xususiyati bu matnning lingvistik materiali va interlingual o'lchovidir.

Parallel korpusdagi manbalardan tarjima faoliyatida foydalanish tarjimon uchun bir qancha yangi imkoniyatlarni yaratib beradi. A.Brezolin ta'kidlaganidek, "ko'plab tarjima tadqiqotchilari tarjima ishlarini bir yo'nalishda, ya'ni o'z ona tiliga tarjima qilishni ma'qul ko'rishadi, chunki ko'p tarjimonlar o'z ona tilida yozilgan matnni boshqa tilga tarjima qilish uchun tarjima qilinayotgan tilda yetarlicha malaka ega emas deb hisoblaydi". Aynan ona tiliga yo'naltirilgan tarjimalar tarjimonni boshqa tilga aloqador madaniy konsepsiyalar va jamiyatda bo'layotgan bilim hamda kompetensiyalarni rivojlantirish imkoniyatidan mahrum qiladi, chunki tarjima jarayonida diqqat tarjimon tili auditoriyasi uchun o'rganilayotgan matnni madaniy, leksik, sintaktik va diskurs jihatidan tushunarli qilishga qaratilgan bo'ladi [Brezolin, 2008; 46]. Bunday bir tomonlama yondashuvdan yiroq bo'lish uchun korpuslar, ayniqsa, parallel korpuslar sifatli tarjima tayyorlashda qo'l keladi. Parallel korpuslar tarjima amaliyotini tahlil qilish va tarjima texnologiyalarini rivojlantirish uchun ko'p sonli empirik ma'lumotlarni taqdim etadi. Tarjima nazariyasi tilshunoslik paradigmalari, madaniy almashinuvlar va texnologik rivojlanish jarayonlarini boshidan kechirdi. Tarjimani o'rganishda korpusga asoslangan yondashuv so'nggi o'n yillikda ommalashdi, sababi hozirgi vaqtda parallel korpuslar, ko'p tilli korpuslar va taqqoslangan korpuslar yordamida ko'plab ma'lumotlar o'rganilmoqda. Ayniqsa, parallel korpuslar tarjima tadqiqotida va ta'limda qimmatli ma'lumot manbasi sifatida namoyon bo'lmoqda.

K.Varantolaning ta'kidlashicha, tarjimonlar o'z vaqtining 50% gacha qismini ma'lumotnomalarga murojaat qilish uchun sarflashi mumkin [Varantola, 2000]. Parallel korpus esa ushbu vaqtni tejashga xizmat qiladi. Tipologik yo'nalishda izlanadigan tilshunoslar orasida parallel korpuslar muayyan darajada mashhurlikka erishdi, chunki parallel korpuslar tilni taqqoslash imkonini beruvchi tabiiy matnlardan misollar olish uchun foydali manba sifatida maydonga keldi [Perkova & Sitchinava, 2016; 132]. XIX asrning 80-yillarigacha parallel matnlardan tilni avtomatik qayta ishlash jarayonida tizimli ravishda foydalanila olinmagan, biroq 50-yillarda avtomatik tarjimadan foydalanishga bir qancha harakatlar qilingan lekin katta hajimdagi matnlarni kiritish va kompyuter xotirasidagi muayyan cheklovlar sababli bu ish samarali bo'lmagan [Véronis & Langlais, 2000]).

A.K. Melbining kuzatishlariga ko'ra, matnlarni tarjima namunalari bilan saqlash va ulardan qayta foydalanish g'oyasi 70-yillarning oxirida bir nechta tadqiqot markazlarida mustaqil ravishda sinovdan o'tkazilgan [Melby, 2000]. 1987-yilda M.Key va M.Roshayzen tomonidan parallel matnlarning avtomatik tarjima metodlari

ishlab chiqilgan va shundan soʻng matnlarni turli xil darajada, yaʼni paragraflar, jumlar, soʻzlar va iboralar koʻrinishida tizimli tarjima qilish boʻyicha bir qancha metodlar taklif etilgan. Moslangan parallel matnlar (bu atama “bitek” ham deb atalib, u B.Xarris tomonidan tavsiya etilgan [Harris, 1988]) turlicha boʻlib, tarjima xotirasini tuzatish, lugʻat va ikki tilli terminologiya roʻyxatini tuzish, tillararo muloqot sifatini yaxshilashda asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Mashina tarjimasi, koʻp tilli leksikografiya va qarama-qarshi tilshunoslik kabi ikki yoki undan ortiq tillarni oʻz ichiga olgan tadqiqotlarda parallel korpuslar muhim ahamiyati ega [Alotaibi, 2016].

Tarjimon muayyan jumlaning tarjima qilmoqchi boʻlsa, parallel korpusdagi maʼlumotlar bazasidan asosiy qoʻllanma sifatida foydalanish mumkin yoki soʻzni matn ichida qanday qoʻllanganligini koʻrishi va tarjima qilinayotgan uslubiga qarab muqobil variantini tanlashi mumkin. K.Peters boshchiligidagi olimlarning taʼriflashicha, ikki tilli lugʻatlar tarjimonlar uchun endi yetarli vosita emasligi va tarjima tadqiqotlari uchun haqiqiy dunyo maʼlumotlari manbasi sifatida oʻz ahamiyatini yoʻqotib bormoqda [Peters et al., 2000]. Jumladan, bunday lugʻatlar ikki asosiy sabab tufayli kamchilik deb hisoblanadi: (1) soʻzlar oʻzining tabiiy kontekstida koʻrinmaydi; (2) har bir soʻzning maʼnolari alohida qismlarga ajratiladi va har bir maʼno uchun mumkin boʻlgan tarjimalar roʻyxatga olinadi. Biroq parallel korpus mazkur kamchiliklarni bartaraf eta oladi, chunki ular turlicha uslub, janr va matn turlariga koʻra semantik jihatdan ekvivalent leksik birliklarning ishlatilishini tasdiqlovchi katta tizimli maʼlumotlar toʻplamiga tezkor kirish imkoniyatini taqdim etadi [Hassani, 2011].

R.Reppen va R.Simpsonning fikricha, tarjimashunoslik sohasida tadqiqot mavzulari qancha boʻlsa korpus turlari ham shuncha [Reppen & Simpson, 2002; 108]. S.Laviosa korpuslarni asosan uchta umumiy turga boʻladi: monolingual (bitta tilga oid), bilingual (ikki tilli) va multilingual (koʻp tilli) korpuslar [Laviosa, 1998]. Nomidan koʻrinib turibdiki, monolingual korpuslar – til egalari tomonidan yaratilgan matnlar yoki muayyan til oʻrganuvchilari tomonidan ishlab chiqilgan katta hajmdagi matnlar toʻplamidir. Monolingual korpuslarga kiritilgan matnlar “muayyan tilda The British National Corpus matnlar”dan iborat boʻladi. Birinchisi tilning tabiiy ishlatilishini aks ettiradi va “til ishlatilishining yozma va ogʻzaki, rasmiy va norasmiy muhitlarda qanday farqlanishi haqidagi chuqur bilimlarni beradi”. Ikkinchisi esa texnik jihatdan monolingual taqqoslanadigan korpuslar deb ataladi va tarjima qilingan matnlar til xususiyatlarini tarjima qilinmagan matnlar bilan solishtirish uchun ishlatiladi. “Zamonaviy Amerika ingliz tili korpusi” (Corpus of Contemporary American English (COCA)) yoki “Britaniya Milliy korpusi” (British National Corpus (BNC)) kabi ingliz tilida mos ravishda 100 million soʻzni oʻz ichiga olgan korpuslar monolingual korpuslarning eng yaxshi namunalari hisoblanadi. Multilingual korpuslar esa aynan bir matnning bir necha tillarda tarjima qilingan variantlarini jamlangan boʻlib katta hajmdagi matnlarni qamrab oladi.

Parallel korpuslarni yaratishda turli mavzudagi ikki tilli veb-saytlar va bosma matnlar tanlanadi hamda tarjimalarning adekvat ekanligi tekshiriladi. Keyingi jarayon jumla, soʻz va iboralarni moslashtirish jarayoni boʻlib, bunda har bir bosqich qoʻlda bajariladi. Parallel matnlarni muvaffaqiyatli tahlil qilish moslashtirish jarayoniga

bog‘liq bo‘lib, dasturiy ta‘minotning samarali ishlashi uchun muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Parallel korpus tarjima faoliyatini turli yo‘llar bilan rivojlanishiga yordam beradi. Jumladan, tarjimonlarni mazkur korpus yordamida tizimli o‘qitish va sinovdan o‘tkazish uchun ma‘lumot sifatida foydalaniladi. Shuningdek, inson tarjimasini mashina tarjimasini yordamchisi sifatida foydalanish mumkin, bunda tarjima uchun kerak bo‘lgan namunalarni topish uchun murojaat qilish mumkin. Parallel korpuslar tarjima jarayonlariga haqiqiy va deyarli cheksiz til ma‘lumotlarini taqdim etib, mazkur korpusning eng keng tarqalgan qo‘llanishlaridan biri – ko‘p ma’noli so‘zning turli tarjimalarini tahlil qilishdir.

NATIJALAR

Tadqiqotimiz shuni ko‘rsatdiki, matn tarjimasini ko‘p o‘rganilgan mavzulardan biri bo‘lib, ko‘plab korpusga asoslangan tadqiqotlar aynan shu yo‘nalishga bag‘ishlangan. Misol tariqasida “Ingliz tili tarjima korpusi” (Translation English Corpus (TEC)) va BNCdan tarjima qilingan va tarjima qilinmagan inglizcha matnlarning solishtirma korpusi sifatida foydalangan M.Oloxan va M.Beyker fe‘llardan so‘ng “that” olmoshi tarjima qilingan matnlarda tarjima qilinmagan matnlarga nisbatan ko‘proq ishlatilishini aniqlashdi [Olohan & Baker, 2000]. A.Frankenberg-Garsiya tomonidan portugal parallel korpusi – “COMPARA”da ham mazkur tajribani sinovdan o‘tkazishgan va olimlar M.Oloxan va M.Beykerning natijalarni tasdiqlashgan [Frankenberg-Garcia, 2006]. Shuningdek, olimlar mazkur korpusda bir nechta tadqiqotlarni amalga oshirishgan bo‘lib, ulardan biri “COMPARA”dan foydalanib, tarjima qilingan va tarjima qilinmagan portugal tilidagi leksikaning o‘ziga xos taqsimlanish jarayonini o‘rganadi. Yuqoridan pastga yo‘naltirilgan va korpusga asoslangan yondashuv yordamida tadqiqot tarjimalarida juda ko‘p yoki kam uchraydigan leksik lemmalarni aniqladi. Masalan, portugalcha “enfim” ravishi asl portugal matnlarida juda ko‘p uchragan, ammo tarjima qilingan matnlarda deyarli mavjud bo‘lmagan, uning inglizcha sinonimi “finalmente” esa tarjima qilingan portugal matnlarida nisbatan tez-tez uchrab, asl portugal matnlarida nisbatan kamdan-kam uchrab turgan. Bu tadqiqot tarjimonlarning tarjima qilingan va qilinmagan matnlar o‘rtasidagi leksik taqsimot xususiyatlari haqidagi taxminlarni tasdiqlash bilan birga, korpuslar orqali aniqlab bo‘lmaydigan farqlarni ko‘rsatib beradi. Ya‘ni, sezilarli farq shundan iboratki, tarjima qilingan matnlar asl matnlarga nisbatan uzunroq ekanligi tasdiqlangan.

Olingan natijalarga tayanib olimlar shunday xulosa qilganki, tarjimalardagi so‘zlarning oshishi asl matn va tarjima o‘rtasidagi farqlarga ko‘proq bog‘liq ekanligini tasdiqlashadi va “eksplisitatsiya/eksplikatsiya” hodisasini qo‘llab-quvvatlaydi. “Eksplisitatsiya/eksplikatsiya” bu tarjima nazariyasida tarjimonning matnni yanada tushunarli va aniqroq qilish uchun qo‘shimcha so‘zlar yoki izohlar qo‘shish hodisasi. Bu asosan tarjimada ma‘no yanada aniqroq aks ettirilishi yoki asl matnda oshkor bo‘lmagan ma‘lumotlarning ochiqroq ifoda qilinishi uchun tarjimon tomonidan foydalanish holatidir. Mazkur jarayon natijasida ko‘pincha tarjima qilingan matnlarning asl matnga qaraganda uzunroq bo‘lishiga olib keladi, chunki tarjimon matnda yashirin yoki bilvosita ifoda etilgan ma‘nolarni ochib berishga intiladi [Jingang, 2017]. Mazkur

korpusga asoslangan holda A.Frankenberg-Garsiya tadqiqot o'tkazgan va quyidagi natijaga erishgan, ya'ni ingliz yozuvchilari portugal yozuvchilariga nisbatan o'n bir marta ko'p o'zlashma so'z foydalangan. Ingliz yozuvchilari o'n uchta o'xshash bo'lgan tillardan o'zlashma so'zlardan foydalanishgan bo'lsa, portugal yozuvchilar faqatgina ingliz, lotin, fransuz va german tillaridan olingan so'zlardan foydalanishgan.

O'z navbatida, A.A. Miln qalamiga mansub "Vinni-Pux" ("Winnie-the-Pooh") asarining D.V. Sichinova tomonidan boshqa german tillariga tarjima qilingan namunasidan foydalangan holda hozirgi tugallangan (present perfect) zamonining turli tillar kesimida qanday tarjima qilinganligini solishtirsa. Uning kuzatuvlariga asosan qayd etishimiz joizki, hozirgi tugallangan zamon nemis tiliga hozirgi zamon qo'shimchalari yordamida tarjima qilingan [Sichinava, 2015]:

Ingliz tilida: *The flood-level has reached an unprecedented height.*

Nemis tilida: *Der Pegelstand ist (PRAES) unverhältnismäßig hoch.*

O'zbek tilida: *To'fon darajasi misli ko'rilmagan balandlikka yetdi.*

Holatni ifodalash ma'nosida ishlatiladigan hozirgi tugallangan zamon nemis tiliga oddiy o'tgan zamon, golland tiliga esa fe'l bo'lmagan konstruksiya yordamida tarjima qilingan. Nemis tilidan kuchli grammatik shaklga ega bo'lgan shved tili bu shaklni saqlab qoladi, lekin balt tillari va bolgar tilida boshqa zamonlar ishlatilganini ko'rishimiz mumkin:

Ingliz tilida: *I have been Foolish and Deluded said he.*

Nemis tilida: *Ich war (PRAET) ein verblendeter Narr sagte er.*

Niderlan tilida: *Stommerd om me zo op een dwaalspoor te laten brengenzei hij.*

Shved tilida: *Jag har varit enfaldig och blivit lurad sa han.*

Isoancha: *He sido Crédulo y Estúpido dijo.*

Italyan tilida: *Sono stato Stupido e Ingenuo disse.*

Litva tilida: *Buvau (PRAET) žioplas Apsigavėlis pridūrė jis.*

Latish tilida: *Es biju (PRAET) muļķis un piekrāpos viņš bēdājās.*

Makedon tilida: *Kolku sum bil glupav i zabudalen reche.*

Bolgar tilida: *Az s'm (PRAES) Glupav i Izmamen.*

Rus tilida: *«Я был Глуп и Сбум с толку», — сказал он [Sichinava, 2015].*

X.Divik parallel korpuslar leksik semantikasi ustida ishlash uchun qanday boshlang'ich nuqta bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Bu jarayon quyidagicha ishlaydi:

1) leksema X ning tarjimalarini yig'ish;

2) X ning o'zi ushbu to'plamdan chiqarish;

3) to'plamdagi a'zolarining tarjimalarini yig'ib, natijani qisman yoki to'liq mos keluvchi tarjimalar to'plami shaklida tashkil qilishdan iborat [Dyvik, 1998].

Natijada leksema X uchun semantik tuzilma taklifi va Xning turli tarjimalarda amalda qo'llanilayotgan atamalar ro'yxatini tizimli shaklda olish mumkin. Mazkur jarayon avtomatlashtirilgan holda, morfologik tahlil va yangi lemmalarni lug'at bilan taqqoslash orqali yangi atamalar va ularning tarjimalarini aniqlashga yordam beradi, mazkur usul terminologiya ustida ishlashda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Korpusga asoslangan tarjima sifatini baholash yondashuvlari haqida L.Bouker "Talabalar tarjimalarini baholashda korpusga asoslangan yondashuv" ("A corpus-

based approach to evaluating student translations”) sarlavhasi ostida akademik muhitda ba’zi ta’limiy jihatlarni e’tiborga olgan holda tadqiqot o’tkazdi. Maxsus mo’ljallangan “Baholash korpusi” resursining talabalar tarjimalarini baholashda foydalilik darajasini tekshirish uchun kichik miqyosdagi tajriba-sinov o’tkazgan. L.Bouker mazkur korpusdan foydalangan test guruhi baholovchilari ayni maqsadda an’anaviy resurslardan foydalangan nazorat guruhi baholovchilariga qaraganda ko’proq xatolarni aniqlaganligini payqadi. Bundan tashqari, test guruhi baholovchilari tomonidan berilgan fikr-mulohazalar nazorat guruhi baholovchilarinikiga qaraganda ancha obyektivroq bo’lgan. Shuningdek, test guruhi baholovchilari tomonidan berilgan fikr-mulohazalar asosida tuzatilgan matnlar soha mutaxassislari va til mutaxassislari tomonidan yuqori sifatli deb baholangan [Bowker, 2000, 2001].

MUNOZARA

Parallel matnlar korpuslarining paydo bo’lishi chog’ishtirma tilshunoslikni rivojlantirishga kuchli turtki berdi, chunki bu yo’nalishning faoliyat doirasi sezilarli darajada kengaydi. Korpus bir xil til shakli yoki tuzilmasining haqiqiy misollari bo’yicha katta tanlovni taqdim etadi. Chog’ishtirma tilshunoslik bilan shug’ullanuvchi tilshunosda tadqiq etilayotgan shakllarning ikki tildagi qo’llanilishini tushuntirish uchun turli manbalar va kontekstlardan yetarli miqdordagi ma’lumotlar bilan ishlash imkoniyati paydo bo’ladi.

Parallel korpuslar tarjima qilingan va tarjima qilinmagan tilni taqqoslash uchun ham foydali manba bo’lib xizmat qila oladi. Ma’lumki, tarjima qilingan matnlar aslida muayyan tilda yozilgan matnlar kabi o’qilmasligini tajribalardan na’moyon bo’ladi. Parallel korpuslardan foydalangan holda muayyan so’zlarning manba matnlarida va tarjimalarda nisbiy chastotasini tekshirish imkoni mavjud. Tarjima metodikasiga ko’ra, parallel matnlarning uchta jihati alohida tahlil qilinadi: *mikrostruktural*, *makrostruktural* va *umumiy* jihat:

Mikrostruktural jihat – kichik birliklar, masalan, so’zlar, iboralar va jumlarlar darajasi tahlil qilinadi. Terminologiyadan tashqari, ular polisemiya va kollokatsiya kabi mikrostruktura muammolarini hal qilishda asl matndagi noaniqliklarni aniqlash va tarjima qilinayotgan tilda yuzaga kelishi mumkin bo’lgan g’alizliklarni aniqlashda parallel matnlarning intralingvistik xususiyatlari samarali vosita bo’lib xizmat qiladi.

Makrostruktural jihat – yirik tuzilmalar, masalan, paragraflar yoki butun bo’limlar ko’rib chiqiladi. Makrostruktural ma’lumotlar interlingvistik va intralingvistik parallel matnlarni o’rganish orqali bir nechta masalalarni o’z ichiga oladi: a) bir tilning turli matn janrlarida qo’llanilishi va farqli jihatlari; b) ko’p tilli korpuslardagi mavzuli tuzilmani taqqoslash; d) matnning butunligi.

Umumiy jihat – tarjimani umumiy mazmuni va uyg’uniligini ta’minlash maqsadida to’liq tahlil qilinadi. Mazkur tahlil jarayonida madaniy qarashlar tarjima jarayoniga mos kelishi talab etiladi [Karimov & Mengliyev, 2019; 388].

O’z navbatida, parallel korpus va uning turlari ikki turga bo’linadi: *moslangan* (aligned) va *moslanmagan* (not aligned). “Moslangan” atamasi korpusda tarjima birliklari orasida bir-birini taqozo etuvchi aniq aloqa mavjudligini bildiradi. Bunday

korpusdan u yoki bu gapning qanday tarjima qilinganini darrov topa olamiz. Bu turdagi korpus tarjimon uchun ahamiyatli, chunki unda noyob resurs – “tarjima xotirasi” (translation memory) mavjud [Zaxarov va boshq., 2021; 87; Zakharov & Bogdanova, 2022]. Ma’lumotlarni parallel korpusga kiritish uchun raqamlashtirish jarayonini talab etadi. Mazkur jarayon parallel korpus uchun alohida kodlangan teglar yordamida amalga oshiriladi. Maxsus teglar o’rganilayotgan tilning matn segmentiga va uning tarjimada mos keladigan qismini aniqlash uchun noyob identifikator beradi. Matnlarni annotatsiyalash va maxsus teglar yordamida segmentlash keyingi tadqiqotlarda istalgan ma’lumotlarni olish imkonini beradi. Avtomatik tarjima uchun bugungi kunda bir qancha dasturlar mavjud bo’lib, ulardan eng mashhurlari Multiconcord va ParaConc [Frankenberg-Garcia, 2006]. Shuningdek, IMS-CWB kabi murakkab korpus protsessorlari yordamida parallel korpuslarda bir nechta amallarni bajarish imkoni mavjud [Christ et al., 1999; 25].

Moslanmagan korpus “qiyosiy” korpus deb ham atalib, matn tarkibidagi birliklarni ularning tarjimasi bilan moslab chiqish va tarjimada mazkur jumalarning bir-biriga muvofiq kelishini ko’rsatib turishdan iborat. Moslashtirish jarayonini avtomatik ravishda yoki qo’lda amalga oshirish imkoniyati mavjud. Dastlabki usul oson, lekin xatolar soni ham ko’p bo’lishi mumkin, masalan, tarjima jarayonida sodda gap qo’shma gap shaklida berilishi kuzatiladi. Mazkur jarayonda qaysi qurilish original ekanligini aniqlashda muammolar yuzaga keladi. Ko’p tilli “moslangan” korpus namunasi sifatida Yevropa Ittifoqining Qonunchilik majmuasi – “Acquis Communautaire” ma’lumotlar bazasini misol tariqasida ko’rishimiz mumkin. Parallel korpusning qiymati uning hajmi hamda qamrab olgan tillarning miqdori bilan belgilanadi. Acquis Communautaire – dunyodagi eng katta parallel korpus bo’lib, uning ikki muhim jihati korpusdan foydalanishning bepulligi, malta-eston, slovenfin kabi kam uchraydigan tillar juftligining mavjudligi bilan baholanadi. Avtomatik moslashtirishda dastur tugallangan tarjimani boshqaradi, ikki tildagi matnlarni segmentlarga bo’ladi va bir-biriga mos keladigan segmentlarni bog’laydi. Afsuski, bugungi kundagi avtomatik moslashtirish dasturlari barcha tillar uchun ham foydali yordamchi bo’la olmaydi, chunki roman alifbosiga asoslangan tillarda mazkur dasturlar adekvat tarjimani amalga oshirishda kamchiliklarga yo’l qo’yadi va qayta tahrirlash jarayonini talab etadi. Parallel korpus vositasida quyidagi imkoniyatlarni inobatga olgan holda talabaga professional leksikani chuqur o’rgatish mumkin. A.A. Kokorevaning ta’kidlashicha, professional leksikani o’rganishda parallel korpusning quyidagi imkoniyatlari qo’l keladi: (1) korpusda professional yo’naltirilgan yozma manbalar mavjud; (b) korpusda asl manba va uning boshqa tilga tarjimasi mavjud; (d) korpus o’rganilayotgan tildan ona tiliga yoki aksincha, ona tilidan o’rganilayotgan tilga tarjima qilish ko’nikmasini shakllantiradi; (e) korpusda ilmiy uslubda yaratiladigan janr namunalari to’planadi, shu bois ilmiy uslubda tarjima qilish ko’nikmasini parallel korpusdan foydalanish orqali shakllantirish mumkin; (f) ta’lim jarayoniga illyustrativ korpuslar jalb qilinishi (korpus maqsadiga ko’ra tadqiqiy yoki illyustrativ bo’ladi) lozim; chunki o’qitilayotgan til leksikasini professional o’rganish uchun sanoqsiz illyustrativ misollarning mavjudligi tadqiq etilayotgan masalaga oydinlik kiritadi; (g)

korpusda zamonaviy professional leksika namunalarini uchratish oson [Kokoreva, 2013].

Parallel korpusga matn kiritilayotganda matnning tarjima variantiga alohida e'tibor berish zarur, ya'ni tarjima professional tarjimon tomonidan qilinganligi va tarjima qilingan matn maxsus mutaxassislar tomonidan tekshirilgan bo'lishi talab etiladi. Korpusdagi elektron matnlar original matnning o'zi yoki uning bir qismi bo'lishi mumkin. Ikki tildagi matn bo'laklari – gaplarni bir-biriga moslashtirish bilan birga matn birliklari teglanishi ham zarur. Bu teglar grammatik, semantik va boshqa xil bo'lishi mumkin. Bu teglar muayyan bir so'zga yoki butun matnning o'ziga birlashtirilgan bo'lishi mumkin. Agar matn birliklari teglanmagan bo'lsa, unda korpusdan ma'lum bir grammatik shaklni qidirish imkoni bo'lmay qoladi. Demak, matn grammatik teglarga ega bo'lganda bir tildagi so'z shaklining ikkinchi tildagi ekvivalentini qidirish, kuzatish mumkin. Agar so'z shakllari grammatik teglanmagan bo'lsa, ikki til ekvivalentlarini tekshirish faqat sintaktik butunliklar orasidagina amal qiladi [Zaxarov va boshq., 2021; 91; Zakharov & Bogdanova, 2022].

Semantik teg ham matnni qayta ishlash jarayonida muhim rol o'ynaydi, masalan, kiyim ma'nosini bildiruvchi so'zlar ishtirok etgan jumalarni ajratib berish buyrug'i berilsa, semantik teg mavjud bo'lgan matnda bu so'rovni qayta ishlash imkoniyati mavjud bo'ladi va so'ralgan semali lemma ishtirok etgan kontekst belgilab ko'rsatib bera oladi. To'g'ri, pidjak, ko'ylak, jemper kabi ishlatilish chastotasi yuqori bo'lgan so'zlarning tarjimada qanday nomlanishi ko'pchilik uchun mummo tug'dirmaydi [Dobrovolskiy, 2015]. Bunday so'zlarni oddiygina lug'atlardan ham topish imkoniyati mavjud, ammo tulup, armyak, poddelka kabi past chastotali so'zlarning turli tarjimonlar tilida qanday ifodalanishini kuzatish foydadan xoli emas, chunki bunday so'zlar hamma tarjima lug'atlarida ham uchramaydi.

Liverpul universitetida 2009-yil korpus tilshunosligi konferensiyasi bo'lib o'tadi, unda parallel korpuslar bilan ishlaydigan tilshunoslik va tarjimashunoslik talablari korpusdan o'z maqsadlari uchun foydalanish asboblari hamda korpus interfeysi bilan bog'liq masalalar muhokama qilinadi. Mazkur konferensiya Lankaster universitetida 2003-yilda korpus tilshunosligi konferensiyasida o'tkazilgan "Ko'p tilli korpus: lingvistik talablar va texnik istiqbollari" ("Multilingual Corpora: Linguistic Requirements and Technical Perspectives") seminari bilan chambarchas bog'liq va uning davomi edi. Muhokamada nemis tadqiqotchisi M.Volk sintaktik darajada annotatsiya, moslashtirish va so'rovlarga e'tibor qaratish kerakligini ta'kidlaydi. Boshqa bir nemis olimi K.Fantinuoli esa konferensiya tarjimonlariga ishining barcha bosqichlarida yordam beradigan InterpretBank dasturiy ta'minotining dizaynini tasvirlab beradi. U "Boot Cat" mexanizmiga asoslanib, qidiruv so'zlari to'plamini berilgan domenga xos hujjatlar uchun internetdan yig'adi, ular bo'yicha atamalarni ajratib oladi va qo'shimcha resurslardan foydalanadi. Vikipediya, ikki tilli onlayn lug'atlar, ta'riflar, tarjimalar, birikmalar va kontekstdagi kalit so'zlar haqida ma'lumot chiqaradi. Barcha modullar tarjimonlarning o'ziga xos ehtiyojlariga moslashtirilgan bo'lib, tayyorlash uchun zarur bo'lgan vaqtni qisqartiradi va tarjimon paytida samarali qidirish imkonini beradi. OPUS korpusi tayyorgarlik bosqichida ekanini aytadi"

[Sobirova, 2022].

Jahon tilshunoslik manzarasi o'zbek tilshunosligida ham parallel korpuslar yaratilishi asosiy masala ekanligiga turtki bo'ldi. Xususan, tarjimonlarga samarali tarjima qilishda yordam beradigan asosiy omillardan biri matnni leksik, sintaktik va diskursiv darajalar asosida tahlil qilishdir. Leksik darajada so'zlar ma'no ifodolovchi asosiy birlikdir. Shuning uchun, so'zlarning ma'nolarini tushunish, ayniqsa, o'zbek va ingliz tillari kabi ikki xil strukturali tillar uchun muhimdir. Leksik ma'nolar asosan ikki turga bo'linadi: denotativ va konotativ ma'nolar. Denotatsiya bu so'zlarning tushunchaviy ma'nosi bo'lib, narsalar, hodisalar yoki jarayonlar belgilaydi. Konnotatsiya esa so'z yoki iboraning matn ichida qanday ma'no anglatayotgani va inson ongida namoyon bo'layotgan hissiy yoki uslubiy xususiyatini bildiradi [Jiang & Rij-Heyligers, 2008; 6]. So'zlarning ma'nosi shaxsiy va madaniy xususiyatga ega bo'lganligi sababli, ayrim so'zlarning konnotatsiyasi uning shaxsiy tajribasi bilan aloqador bo'ladi. Sintaktik daraja tilshunoslikda tilning strukturaviy jihatlarini o'rganadigan bo'lim bo'lib, gapdagi so'zlarning o'zaro bog'lanishi, joylashuvi va grammatik qoidalar asosida qanday gap tuzish usullarini o'rganadi. Tarjima jarayonida sintaktik darajaning ahamiyati quyidagi sabablarga ko'ra muhimdir:

1. Ma'noni to'g'ri yetkazish: har bir tilning sintaktik tuzilishi turlicha bo'lganligi sababli, tarjimon asl matn ma'nosini yo'qotmaslik uchun kerakli shakllarni tanlashi muhimdir. Masalan, ingliz tilida gap tuzilishi qat'iy bo'lib, so'zlar almashinuvi gapning ma'nosiga ta'sir qiladi. Flektiv tillar uchun esa so'zlarning o'rni emas, balki mazmuni birinchi o'ringa qo'yiladi.

2. Madaniy xususiyatni saqlash: sintaktik tuzilish tildagi madaniy o'ziga xoslikni aks ettirishi mumkin. Ingliz tilida aniq va to'g'ridan to'g'ri gaplar ishlatiladi. Boshqa tillarda esa gaplar ko'pincha bilvosita, mazmuni yanada ochiq bo'lishi uchun ular o'ziga xos tarzda tuziladi. Shuning uchun, tarjimada har ikkala tilning madaniy xususiyatlarini saqlash uchun mos sintaktik tuzilmani tanlash muhimdir.

3. Mazmun va shakil uyg'unligini saqlash: tarjimada sintaktik darajani saqlab qolish orqali tarjimon asl matndagi mazmun va shakl uyg'unligini tarjimada yaqqol ko'rsatib berishi mumkin. Masalan, tarjima qilinayotgan tilning grammatik qoidalariga mos kelmaydigan shakillarni to'g'ri sintaktik ifodalarga o'zgartirish lozim bo'ladi, shunda kitobxon uchun tushunarli va o'qilishi oson mant yaratiladi.

Diskurs darajasi – bu nutq yoki matnning bir qismi bo'lib, u qisqa gapdan tortib uzunroq ma'ruza yoki insho bo'lishi mumkin. Turli madaniyatdan kelib chiqqan odamlar o'zlarining og'zaki yoki yozma diskurslarini tashkil etish va ifodalash jarayonida sezilarli farqlarni namoyon qilishadi. Turli madaniyatga oid insonlar ona tilining kuchli ta'siri ostida bir xil fikrni o'zlarining shaxsiy tajribalariga asoslanib turlicha tahlil qilishlari mumkin. Bu holat, ayniqsa, yozma diskursda yaqqol namoyon bo'ladi. Diskurs bu eng yuqori daraja bo'lib, unda madaniy qatlamning barcha jihatlarini ko'rishimiz mumkin.

Tarjima qilingan korpuslar bilan ish olib borish jarayonida ba'zi bir kamchiliklarni kuzatgan olim F.Zanettin ekvivalentlik masalasini ham inobatga olish zarur ekanligini ta'kidlab o'tadi. Uning kuzatuvlari shuni ko'rsatdiki, parallel korpusda tarjima

qilingan matnlar shu tilning lingvistik imkoniyatlarini to'liq aks ettirib bera olmaydi hamda ayrim tarjimonlarning uslubiy xususiyatlarini ham sanab o'tgan [Zanettin, 1998]. Xuddi shunday kuzatuv olib borgan K.Malmkyayer ham parallel korpusdagi ba'zi bir kamchiliklarni keltirgan. Masalan, parallel korpus odatda har bir manba matni uchun faqat bitta tarjima xotirasi mavjud bo'lishini va bu tarjima ishining muhim jihati hisoblangan bir xil matnning bir nechta tarjimalari o'rtasidagi farqlarni bilish va ular bilan ishlash zaruriyatini kamaytirayotganligini ta'kidlagan. Biroq parallel korpusdagi kamchiliklar mazkur vositani tarjima jarayonida qo'llashni cheklamaydi, balki ular tarjima jarayoniga yangi yondashuvni taqdim etadi. Parallel korpuslar kordans orqali turli ikki tilli tarjima misollarini taqdim etadi va matnni bir nechta tarjima versiyalari bilan taqqoslash imkoniyatini taqdim qiladi [Malmkjaer, 1998]. M.Abjalova ta'kidlaganidek, parallel korpuslar qanday tarjima qilishni o'rgatmaydi, balki tarjimadagi o'zaro moslikni ko'rsatadi, ya'ni muayyan leksema, so'z shakli yoki grammatik formaga boshqa tilda unga muvofiqlashtirilgan birlikni kordansda taqdim etadi [Abjalova, 2022; 45]. Mazkur yo'nalish o'zbek tilshunosligida hali chuqur tadqiq qilinishni talab etadigan soha bo'lib, hozirda bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, parallel korpuslar vaqt o'tgani sari tilshunoslik va tarjimashunoslik sohalarida muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Binobarin, bugungi kunda ular turli tillar o'rtasidagi lingvistik farqlarni aniqlash, tarjima sifatini oshirish va tillararo qiyosiy tadqiqotlar o'tkazish uchun qimmatli manba hisoblanadi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Parallel korpuslarning muhim afzalliklari qatoriga, o'z navbatida, ularning katta hajmdagi autentik til materiallarini taqdim etishi, leksik birliklarning kontekstdagi qo'llanilishini ko'rsatishi va tarjima ekvivalentlarini tezkor topish imkonini berishi kabilarni kiritishimiz mumkin. Bu esa tarjimonlar, tilshunoslar va til o'rganuvchilar uchun juda foydali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, parallel korpuslarni yaratish va ulardan foydalanishda ba'zi muammolar ham mavjud. Xususan, matnlarni moslashtirish, annotatsiyalash va teglashtirish jarayonlari murakkab hamda ko'p vaqt talab etadi. Shuningdek, tarjima sifati va ekvivalentlik masalalari ham e'tiborga olinishi lozim.

Umuman olganda, parallel korpuslar zamonaviy tilshunoslik va tarjimashunoslikning muhim yo'nalishi sifatida rivojlanib bormoqda. Kelajakda ularning imkoniyatlari yanada kengayishi, yangi dasturiy ta'minotlar yaratilishi va amaliy qo'llanilish doirasi ortishi kutilmoqda. Bu esa til o'rganish, tarjima va tillararo muloqot jarayonlarini yanada samarali va sifatli bo'lishiga xizmat qiladi. Bunga erishish esa uzluksiz va uzviy tarzda ilmiy-amaliy tadqiqot ishlarini olib borishni taqozo qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abduraxmonova, N.Z. (2021). *O'zbek tili elektron korpusining kompyuter modellari*. Filol. fan. dok. diss. avtoref. Toshkent: O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti.

2. Abjalova, M. (2022). *Korpus lingvistikasi*. Toshkent: Bookmany Print.
3. Alotaibi, M.H. (2016). AEPC: Designing an Arabic/English Parallel Corpus. *Research in Corpus Linguistics*, 4, 1–7.
4. Bowker, L. (2000). A corpus-based approach to evaluating student translations. *The Translator*, 6(2), 183–210. <https://doi.org/10.1080/13556509.2000.10799065>.
5. Bowker, L. (2001). Towards a methodology for a corpus-based approach to translation evaluation. *Meta*, 46(2), 345–364. <https://doi.org/10.7202/002135ar>.
6. Brezolin, A. (2008). Disposable corpus in translator training: Translating medical abstracts into L2. In *Proceedings of the 8th Teaching and Language Corpora Conference* (pp. 45–50). Lisboa: Associação de Estudos e de Investigação do ISLA – Lisboa.
7. Dobrovol'skiy, D. (24 noyabrya 2015 goda). *Parallel'nyye korpusy tekstov* [Video]. PostNauka. <https://postnauka.org/video/54851>.
8. Dyvik, H. (1998). A translation basis for semantics. In S.Johansson & S.Okseffell (Eds.), *Corpora and Cross-linguistic Research: Theory, Method, and Case Studies* (pp. 51–86). Amsterdam: Rodopi.
9. Ebeling, J. (1998). Contrastive linguistics, translation, and parallel corpora. *Meta*, 43(4), 602–615. <https://doi.org/10.7202/002692ar>.
10. Frankenberg-Garcia, A. (2006). Using a parallel corpus in translation practice and research. In *Actas da Contrapor 2006, 1ª Conferência de Tradução Portuguesa* (pp. 142–148). Lisboa: Universidade Nova de Lisboa.
11. Granger, S. (2003). The corpus approach: A common way forward for contrastive linguistics and translation studies?. In S.Granger, J.Lerot & S.Petch-Tyson (Eds.), *Corpus-based Approaches to Contrastive Linguistics and Translation Studies* (pp. 17–29). Leiden, The Netherlands: Brill. https://doi.org/10.1163/9789004486638_004.
12. Harris, B. (1988). Bi-text, a new concept in translation theory. *Language Monthly*, 54, 8–10.
13. Hassani, G. (2011). A corpus-based evaluation approach to translation improvement. *Meta*, 56(2), 351–373. <https://doi.org/10.7202/1006181ar>.
14. Jiang, X., & Rij-Heyligers, J. (2008). Parallel corpus in translation studies: An intercultural approach. In *Proceedings of The International Symposium on Using Corpora in Contrastive and Translation Studies* (pp. 1–27). China: Hangzhou.
15. Jingang, B. (2017). Parallel corpus, translation studies and translation teaching. In *Proceedings of the 7th International Conference on Education, Management, Information and Computer Science* (pp. 358–362). China: Atlantis Press. <https://doi.org/10.2991/icemc-17.2017.71>.
16. Jo'rayeva, N.Sh. (2022). Parallel kopus tuzish muammolari. “O‘zbek tilining milliy korpusi: muammo va vazifalar” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami (B. 285–290). Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.
17. Karimov, R.A., & Mengliev, B.R. (2019). The role of the parallel corpus in linguistics, the importance and the possibilities of interpretation. *International Journal of Engineering and Advanced Technology*, 8(5S3), 388–391. <https://doi.org/10.35940/ijeat.E1083.0785S319>.
18. Kokoreva, A.A. (2013). Korpus parallel'nykh tekstov v obuchenii inostrannomu yazyku. *Vestnik Tambovskogo universiteta. Seriya: Gumanitarnyye nauki*, 2(118), 57–62.
19. Kopotev, M. (2014). *Vvedeniye v korpusnuyu lingvistiku*. Praga: Animedia Company.
20. Cysouw, M., & Wälchli, B. (2007). Parallel texts: using translational equivalents in linguistic typology. *Language Typology and Universals*, 60(2), 95–99. <https://doi.org/10.1524/stuf.2007.60.2.95>.
21. Laviosa, S. (1998). The corpus-based approach: A new paradigm in translation studies. *Meta*, 43(4), 474–479. <https://doi.org/10.7202/003424ar>.
22. Mahanand, A. (2020). Using parallel texts to teach literary appreciation and academic writing skills of M.A. students. *Rupkatha Journal on Interdisciplinary Studies in Humanities*, 12(6). <https://dx.doi.org/10.21659/rupkatha.v12n6.10>.

23. Malmkjaer, K. (1998). Love thy neighbour: Will parallel corpora endear linguists to translators?. *Meta*, 43(4), 534–541. <https://doi.org/10.7202/003545ar>.
24. Melby, A.K. (2000). Sharing of translation memory databases derived from aligned parallel text. In J.Véronis (Ed.), *Parallel Text Processing. Text, Speech and Language Technology* (Vol. 13, pp. 347–368). Dordrecht: Springer. https://doi.org/10.1007/978-94-017-2535-4_18.
25. Ólohan, M., & Baker, M. (2000). Reporting that in translated English. Evidence for subconscious processes of explicitation?. *Across Languages and Cultures*, 1(2), 141–158. <https://doi.org/10.1556/Acr.1.2000.2.1>.
26. Perkova, N., & Sitchinava, D. (2016). On the development of a Latvian-Russian parallel corpus. In I.Skadiņa & R.Rozis (Eds.), *Human Language Technologies – The Baltic Perspective: Proceedings of the Seventh International Conference* (Vol. 289, pp. 130–135). Amsterdam: IOS Press. <https://doi.org/10.3233/978-1-61499-701-6-130>.
27. Peters, C., Picchi, E., & Biagini, L. (2000). Parallel and comparable bilingual corpora in language teaching and learning. In S.P. Botley, A.M. McEnery & A.Wilson (Eds.), *Multilingual Corpora in Teaching and Research* (pp. 73–85). Leiden, The Netherlands: Brill.
28. Reppen, R., & Simpson, R. (2002). *Corpus linguistics*. New York: Routledge.
29. Sichinava, D.V. (2015). Parallel'nyye teksty v sostave natsional'nogo korpusa russkogo yazyka: novyye napravleniya razvitiya i rezul'taty. *Trudy Instituta russkogo yazyka im. V.V. Vinogradova*, 3(6), 194–234.
30. Sobirova, N.G'. (2022) Korpus lingvistikasi va parallel korpuslar tavsifi. *Academic Research in Educational Sciences*, 3(5), 1442–1450.
31. Umerova, M.V. (2018). Parallel corpora in translation studies. *Sciences of Europe*, 29, 56–59.
32. Varantola, K. (2000). Translators, dictionaries and text corpora. In S.Bernardini & F.Zanettin (Eds.), *I corpora nella didattica della traduzione* (pp. 1–17). Bologna: CLUEB.
33. Véronis, J., & Langlais, P. (2000). Evaluation of parallel text alignment systems. In J.Véronis (Ed.), *Parallel Text Processing. Text, Speech and Language Technology* (Vol. 13, 369–388). Dordrecht: Springer. https://doi.org/10.1007/978-94-017-2535-4_19.
34. Zakharov, V., & Bogdanova, S. (2022). *Korpusnaya lingvistika*. Sankt-Peterburg: Izdatel'stvo Sankt-Peterburgskogo gosudarstvennogo universiteta.
35. Zanettin, F. (1998). Bilingual comparable corpora and the training of translators. *Meta*, 43(4), 616–630. <https://doi.org/10.7202/004638ar>.
36. Zaxarov, V., Mengliyev, B., & Xamroyeva, Sh. (2021). *Korpus lingvistikasi: korpus tuzish va undan foydalanish*. Toshkent: GlobeEdit.
37. Christ, O., Schulze, B.M., Hofmann, A., & König, E. (1999). *The IMS corpus workbench: Corpus query processor (CQP)*. Stuttgart: University of Stuttgart.

REFERENCES

1. Abdurakhmanova, N.Z. (2021). Computer models of the Uzbek language electronic corpus. *Abs. DSc. thes. philol.* Tashkent: Institute of Uzbek Language, Literature and Folklore.
2. Abjalova, M. (2022). *Corpus linguistics*. Tashkent: Bookmany Print.
3. Alotaibi, M.H. (2016). AEPC: Designing an Arabic/English Parallel Corpus. *Research in Corpus Linguistics*, 4, 1–7.
4. Bowker, L. (2000). A corpus-based approach to evaluating student translations. *The Translator*, 6(2), 183–210. <https://doi.org/10.1080/13556509.2000.10799065>.
5. Bowker, L. (2001). Towards a methodology for a corpus-based approach to translation evaluation. *Meta*, 46(2), 345–364. <https://doi.org/10.7202/002135ar>.
6. Brezolin, A. (2008). Disposable corpus in translator training: Translating medical abstracts into L2. In *Proceedings of the 8th Teaching and Language Corpora Conference* (pp. 45–50). Lisbon: Association of Studies and Research of ISLA – Lisbon.

7. Christ, O., Schulze, B.M., Hofmann, A., & König, E. (1999). *The IMS corpus workbench: Corpus query processor (CQP)*. Stuttgart: University of Stuttgart.
8. Cysouw, M., & Wälchli, B. (2007). Parallel texts: using translational equivalents in linguistic typology. *Language Typology and Universals*, 60(2), 95–99. <https://doi.org/10.1524/stuf.2007.60.2.95>.
9. Dobrovolskiy, D. (2015, November 24). *Parallel text corpora* [Video]. PostNauka. <https://postnauka.org/video/54851>.
10. Dyvik, H. (1998). A translation basis for semantics. In S.Johansson & S.Oksefjell (Eds.), *Corpora and Cross-linguistic Research: Theory, Method, and Case Studies* (pp. 51–86). Amsterdam: Rodopi.
11. Ebeling, J. (1998). Contrastive linguistics, translation, and parallel corpora. *Meta*, 43(4), 602–615. <https://doi.org/10.7202/002692ar>.
12. Frankenberg-Garcia, A. (2006). Using a parallel corpus in translation practice and research. In *Proceedings of Contrapor 2006, 1st Portuguese Translation Conference* (pp. 142–148). Lisbon: New University of Lisbon.
13. Granger, S. (2003). The corpus approach: A common way forward for contrastive linguistics and translation studies?. In S.Granger, J.Lerot & S.Petch-Tyson (Eds.), *Corpus-based Approaches to Contrastive Linguistics and Translation Studies* (pp. 17–29). Leiden, The Netherlands: Brill. https://doi.org/10.1163/9789004486638_004.
14. Harris, B. (1988). Bi-text, a new concept in translation theory. *Language Monthly*, 54, 8–10.
15. Hassani, G. (2011). A corpus-based evaluation approach to translation improvement. *Meta*, 56(2), 351–373. <https://doi.org/10.7202/1006181ar>.
16. Jiang, X., & Rij-Heyligers, J. (2008). Parallel corpus in translation studies: An intercultural approach. In *Proceedings of The International Symposium on Using Corpora in Contrastive and Translation Studies* (pp. 1–27). China: Hangzhou.
17. Jingang, B. (2017). Parallel corpus, translation studies and translation teaching. In *Proceedings of the 7th International Conference on Education, Management, Information and Computer Science* (pp. 358–362). China: Atlantis Press. <https://doi.org/10.2991/icemc-17.2017.71>.
18. Jurayeva, N.Sh. (2022). Problems of creating a parallel corpus. In *Proceedings of the International Scientific-Practical Conference on 'National Corpus of the Uzbek Language: Problems and Tasks'* (pp. 285–290). Tashkent: Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.
19. Karimov, R.A., & Mengliev, B.R. (2019). The role of the parallel corpus in linguistics, the importance and the possibilities of interpretation. *International Journal of Engineering and Advanced Technology*, 8(5S3), 388–391. <https://doi.org/10.35940/ijeat.E1083.0785S319>.
20. Kokoreva, A.A. (2013). Parallel text corpus in foreign language teaching. *Tambov University Review. Series: Humanities*, 2(118), 57–62.
21. Kopotев, M. (2014). *Introduction to corpus linguistics*. Prague: Animedia Company.
22. Laviosa, S. (1998). The corpus-based approach: A new paradigm in translation studies. *Meta*, 43(4), 474–479. <https://doi.org/10.7202/003424ar>.
23. Mahanand, A. (2020). Using parallel texts to teach literary appreciation and academic writing skills of M.A. students. *Rupkatha Journal on Interdisciplinary Studies in Humanities*, 12(6). <https://dx.doi.org/10.21659/rupkatha.v12n6.10>.
24. Malmkjaer, K. (1998). Love thy neighbour: Will parallel corpora endear linguists to translators?. *Meta*, 43(4), 534–541. <https://doi.org/10.7202/003545ar>.
25. Melby, A.K. (2000). Sharing of translation memory databases derived from aligned parallel text. In J.Véronis (Ed.), *Parallel Text Processing. Text, Speech and Language Technology* (Vol. 13, pp. 347–368). Dordrecht: Springer. https://doi.org/10.1007/978-94-017-2535-4_18.
26. Ólohan, M., & Baker, M. (2000). Reporting that in translated English. Evidence for subconscious processes of explicitation?. *Across Languages and Cultures*, 1(2), 141–158.

- <https://doi.org/10.1556/Acr.1.2000.2.1>.
27. Perkova, N., & Sitchinava, D. (2016). On the development of a Latvian-Russian parallel corpus. In I. Skadiņa & R. Rozis (Eds.), *Human Language Technologies – The Baltic Perspective: Proceedings of the Seventh International Conference* (Vol. 289, pp. 130–135). Amsterdam: IOS Press. <https://doi.org/10.3233/978-1-61499-701-6-130>.
 28. Peters, C., Picchi, E., & Biagini, L. (2000). Parallel and comparable bilingual corpora in language teaching and learning. In S.P. Botley, A.M. McEnery & A. Wilson (Eds.), *Multilingual Corpora in Teaching and Research* (pp. 73–85). Leiden, The Netherlands: Brill.
 29. Reppen, R., & Simpson, R. (2002). *Corpus linguistics*. New York: Routledge.
 30. Sitchinava, D.V. (2015). Parallel texts in the composition of the Russian National Corpus: New development directions and results. *Proceedings of the Russian Language Institute named after V.V. Vinogradov*, 3(6), 194–234.
 31. Sobirova, N.G. (2022) Corpus linguistics and the description of parallel corpora. *Academic Research in Educational Sciences*, 3(5), 1442–1450.
 32. Umerova, M.V. (2018). Parallel corpora in translation studies. *Sciences of Europe*, 29, 56–59.
 33. Varantola, K. (2000). Translators, dictionaries and text corpora. In S. Bernardini & F. Zanettin (Eds.), *Corpus Use and Learning to Translate* (pp. 1–17). Bologna: CLUEB.
 34. Véronis, J., & Langlais, P. (2000). Evaluation of parallel text alignment systems. In J. Véronis (Ed.), *Parallel Text Processing. Text, Speech and Language Technology* (Vol. 13, 369–388). Dordrecht: Springer. https://doi.org/10.1007/978-94-017-2535-4_19.
 35. Zakharov, V., & Bogdanova, S. (2022). *Corpus linguistics*. Saint Petersburg: Saint Petersburg State University Press.
 36. Zakharov, V., Mengliyev, B., & Khamroyeva, Sh. (2021). *Corpus linguistics: Corpus construction and use*. Tashkent: GlobeEdit.
 37. Zanettin, F. (1998). Bilingual comparable corpora and the training of translators. *Meta*, 43(4), 616–630. <https://doi.org/10.7202/004638ar>.